

O'ZBEKISTON KULOLCHILIK SAN'ATI

*Soliyeva Diyora Bobur qizi*

*Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Pedagogika va  
sdan'atshunoslik fakulteti tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi kafedrasini o'qituvchisi:*

*Rasulova Mushtariybegin Rustamjon qizi*

*Pedagogika va san'atshunoslik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** O'zbekistonda kulolchilik san'ati zamonaviy va tarixiy madaniyatning ahamiyatli qismini tashkil etadi. Bu san'at shakllanishi davlatning mustaqilligini e'lon qilish va milliy identifikatsiyani o'z ichiga olgan davrarlarni yoritadi. Ushbu maola orqali bularning barchasi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish mumkin bo'ladi.

**Kalit so`zlar:** Kulolchilik, loy, bezak, Sirkor, kulolchilik charxi.

Kulolchilik xalq amaliy san'ati turlaridan bo'lib, hunarmandchilikning loydan, gildan turli buyumlar, idishlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan sohasiga kiradi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tabiiy tuproq bo'lib, loy qancha ko'p pishitsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikning bezak san'ati bo'lgan koshinkorlik san'ati Markaziy Osiyoning me'morchiligidagi keng rivojlandi.

Samarqandda kulolchilik neolit davridan buyon mavjud bo'lsa-da, uning eng rivojlangan davrlari eramizning IX–XII asrlarga to'g'ri keladi. Sanoat rivojlangan davrga kelib bu soha ancha susaydi, so'nggi o'n yilliklarda uning ayrim ko'rinishlari hatto yo'qolib ketish xavfi ostida goldi. Ana shunday paytda kulollar sulolasini davom ettirib kelayotgan hunarmand oilalar o'z maktabini tashkil etdi.

Markaziy Osiyoning yirik savdo shahri bo'lgan Samarqand azaldan mintaqaning janubiy-g'arbiy viloyatlarini Ustrushona, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi muhim karvon yo'llari chorrahasida joylashgan. Samarqanddan Farg'ona va Shosha qarab ketuvchi yo'llar o'rta asrlarda Ustrushona nomi bilan yuritila boshlangan viloyat orqali o'tgan<sup>1</sup>. Qadimgi yozma manbalarning cheklangan doirasi turlicha tarzda Ustrushona hududi bilan bog'liq bo'lib, uzoq vaqtadan beri ilmiy adabiyotlarda faol foydalaniib kelinmoqda.

Mamlakatimiz hududida kulolchilikni ko'plab asosiy muktab va markazlari mavjud. Rishton, Buxoro, G'urumsaroy, Toshkent, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo kulolchilik

<sup>1</sup> 18 Ал-Истархи. Книга путей и государств (Китаб масалик ал-Мамалик). / Перевод с персидского Ворожейкиной З.Н. Я крапольского. // Материалы по истории киргизов и Киргизии. – М. 1973. – С. 256-259.

maktablarini sanash mumkin. Ushbu kulolchilik maktablari bir biridan yaratilgan mahsulotlarni tayyorlanish uslubi, naqsh-gullari, rangi va pardozi bilan biri-biridan farqlanadi.

Tayyorlanish usuliga ko'ra, u ikkita asosiy tur - nosirkor va sirkor sopolga bo'linadi. Nosirkor sopolchilik yanada qadimiyoq. Milloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning o'rtalarida texnologik inqilob ro'y berdi, ya'ni kulolchilik charxi paydo bo'ldi va u nosirkor sopol buyumlar ko'rinishini o'zgartirdi. O'sha vaqtdan u shakl hamda bezak jihatidan yanada mukammalashib xilma xil ko'rinishga ega bo'la boshladi.

VIII asr oxiri IX asr boshidan Movarounnahr shaharlarida sirlangan sopol buyumlar yasala boshlandi va keng quloch yoydi. Bular oq yuzali sopol bo'lib, idishlar iliq, qizg'ish, pushtirang, shuningdek, yashiltop zaytun tusli ko'rinish kasb etdi.

IX-XII asrlarda bu yerda u haqiqiy badiiy san'atga aylandi, yuqori texnik sifatga erishdi. Markaziy Osiyoda XIV asr oxiri XV asr boshlarida ko'k-moviy tusdagi mahalliy oq loydan yasalgan idishlar paydo bo'ldi.

Uning tarixi binolardan, qo'l-istiqbol va g'ilof-san'ati gurlanishlaridan iboratdir. Kulolchilikning boshlanishiga Sharq va G'arbi O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Surxondaryo viloyatlariga kelib chiqqan qavmlar, qo'l-istiqbol va qo'l-istiqbol bo'laklari misol sifatida keltiriladi. Kulolchilik orqali turli rang va kompozitsiyadagi tasvirni yaratish, hatto haykaltarosh yoki mahobatli bezak ustasi eplay olmaydigan keng makonni, devorni badiiy bezatish imkoniyati mavjud<sup>2</sup>.

O'rta Osiyoning qadimiyligi g'oyat nafis chiroqli shaklga ega bo'lgan gul va nuqtalar bilan bezatilgan kosa, piyola, tovoq, choynak, vaza, ko'za, xurmacha, kuvalak, zeb-ziynatlar va boshqa kulolchilik-keramik buyumlari qadim-qadimdan dunyo ahli e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Chunki, O'rta Osiyo amaliy san'ati ustalarining kulolchilik buyumlari o'zining konstruktsion qulayligi, jarangdorligi, jilolanuvchi tabiiy bo'yoqlari, gullar va tabiat ramzini bezab, g'oyat nozik badiylashtirilgan tasvirlari dunyoni barcha millat vakillariga yoqqan. Chunki «San'at – millat va odam tanlamaydi». Kulolchilikning bezak san'ati bo'lgan koshinkorlik san'ati Markaziy Osiyoning me'morchiligida keng rivojlandi. Mamlakatimiz hududida kulolchilikning ko'plab asosiy maktab va markazlari mavjud. Rishton, Buxoro, G'urumsaroy, Toshkent, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo kulolchilik maktablарini sanash mumkin. Ushbu kulolchilik maktablari bir biridan yaratilgan mahsulotlarni tayyorlanish uslubi, naqsh-gullari, rangi va pardozi bilan biri-biridan farqlanadi.

O'zbekistonning kulolchilik buyumlari o'ziga xosligining yana bir isboti ular butun Markaziy Osiyo mintaqasi tarixidan "hikoya qilishga" qodir. Ular savdo aloqalarining rivojlanish yilnomasi va harbiy yurishlarning aks-sadosi, hukmron sulolalarining yuksalishi va qulashi, turli madaniyatlarning uyg'unlashuvini o'zida aks ettiradi. Siz buni faqatgina ko'rishingiz va eshitishingiz kerak. Eng go'zal sirlangan kulolchilik IX asrda paydo bo'lgan. Bir qancha

<sup>2</sup> Дрёмина О.Ю. Художественная керамика в убранстве московского метрополитена. Проблемы стилевого развития. Автореферат дисс. канд. искусствоведения. – Москва: 2008. – С.

maktablar – Afosiyob (IX–XII asrlar), Temuriylar (XV asrlar) maktablari va O‘rta asrlar oxiridagi davlatlarning Xiva, Qo‘qon xonliklari, Buxoro amirligi maktablari eng yorqin maktablar sanaladi. Ular bezaklari va ranglari bilan o‘zaro farq qiladi va bir vaqtning o‘zida ularda qandaydir tarzda o‘zaro uyg‘unlik mavjud.

Afrosiyob idishlari mukammalligi bilan ixcham shakl va tasvirlarni qadrlovchi insonning qalbini “chertmay” qolmaydi. Ular ikki yoki uch rang vositasida ishlangan bo‘lib, qizil-jigarrang, oq yoki qora fonda usta qo‘li bilan kontrast rangdagi naqshlar chizilgan. Ya’ni u tom ma’noda mo‘yqalamning bir nechta harakati bilan idishni dizayn san’atining betakror asarga aylantirgan. Temuriylar kulolchiligidagi aynan oq va ko‘k ranglar uyg‘unligiga ishtiyoq seziladi. Xonliklar davri kulolchiligi esa naqshlar va uslublar jamlanmasidir. Xalq xunarmandchiligi va amaliy san’atining tur va shakllari haqida ham ayrim ma’lumotlarga ega bo‘lish biz uchun zaruratdir. Bizning davrimizga kelib katta-katta shaharlardagi axolining ko‘pchilik qismini hunarmandlar tashkil etmoqda. “Hunar-hunardan unar” qabilida yoshlarimiz uchun maxsus san’at maktablari va boshqa turdagи o‘quv yurtlarining tashkillanishi ham asosiy omillardan biriga aylanib kelmoqda. Bu masalada davlatimiz olib borayotgan ijtimoiy-maishiy turmush tarzimizni yuksaltrishga qaratilgan ishlarning mohiyatini baholash ancha quvonarli holdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. S.Bulanov. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati. T., 1991 yil.
2. M.Rahimov. O’zbekiston badiiy keramikasi. T., 1961 y.
3. A.Turg’unov.O’zbek kulolchilgi san’atining hududiy xususiyatlari.T. 2001.
4. B.Oripov. Tasviriy san’at asoslari. N., 1994 y.
5. E.Xoxlova. Badiiy keramika. M., 1978 y.
6. E.Sayko. Keramika ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasining tarixiytaraqqiyoti. M., 1982 y.
7. B.Oripov. Jahon san’ati tarixi. 3 qismli. N., 2004-2007 y.
8. B.Oripov. San’at tarixidan qisqacha izohli lug’at. N., 2004 y.
9. Y.Qosimov Qadimgi Farg’ona sirlari. N., 1992 y.